

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARINI MUSTAQILLIKKA  
O'RGATISH – INKLIZIV TA'LIM SAMARADORLIGI  
MEZONINING ASOSLARI**

*Qo'qon Universiteti Andijon filiali  
Boshlang'ich ta'lif 1-kurs talabalari  
Axmadjonova Gavharoy Shavkatbek qizi  
Usmonova Sevinch Islombek qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularda mustaqillik ko'nikmalarini shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Mustaqillik – nafaqat shaxsiy rivojlanishning muhim omili, balki inklyuziv ta'lif samaradorligini baholashda asosiy mezonlardan biridir. Tadqiqotda imkoniyati cheklangan bolalarni kundalik hayotga moslashtirish, o'zo'ziga xizmat ko'rsatish, ijtimoiy muloqot va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularni jamiyatga integratsiya qilishning metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik yondashuvlar, o'qituvchilarining roli va oilaviy muhitning ta'siri tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lifda mustaqillikni rivojlantirish orqali nafaqat bolalarning hayot sifati yaxshilanadi, balki ularning teng huquqli jamiyat a'zolariga aylanishiga imkon yaratiladi.

**Annotation:** This paper explores the importance of fostering independence in children with disabilities as a key indicator of the effectiveness of inclusive education. Independence is not only essential for the personal development of children but also serves as a critical criterion in evaluating the outcomes of inclusive educational practices. The study highlights methods for developing essential life skills, self-care abilities, social communication, and decision-making capacities in children with disabilities to support their integration into society. It also examines the role of teachers, individualized pedagogical approaches, and the influence of family environments. Promoting independence through inclusive education improves the quality of life for children with disabilities and enables them to become equal and active members of society.

**Аннотация:** В данной работе рассматривается важность формирования самостоятельности у детей с ограниченными возможностями как одного из ключевых критериев эффективности инклюзивного личностного развития ребенка, но и основным показателем успешности инклюзивной образовательной практики. В исследовании освещаются методы формирования жизненно необходимых навыков, самообслуживания, социальной коммуникации и способности к принятию решений у детей с ограниченными возможностями с целью их успешной интеграции в общество. Также рассматривается роль

педагогов, индивидуальный подход в обучении и влияние семейной среды. Развитие самостоятельности в рамках инклюзивного образования способствует улучшению качества жизни детей с ОВЗ и обеспечивает их полноценное участие в жизни общества на равных правах.

**Kalit so‘zlar:** Imkoniyati cheklangan bolalar, mustaqillik, inklyuziv ta’lim, ta’lim samaradorligi, ijtimoiy moslashuv, hayotiy ko‘nikmalar, maxsus pedagogika, integratsiya, adaptatsiya, rivojlantirish metodlari, qo‘llab-quvvatlovchi muhit.

**Keywords:** Children with disabilities, independence, inclusive education, education effectiveness, social adaptation, life skills, special pedagogy, integration, adaptation, development methods, supportive environment

**Ключевые слова:** Дети с ограниченными возможностями, самостоятельность, инклюзивное образование, эффективность образования, интеграция, адаптация, методы развития, поддерживающая среда.

Hozirgi kunda ko’plab davlatlar qatori O’zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim va tarbiya olishlari, tibbiy muolajalar olib borishlari uchun imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlar va bolalarning haqhuquqlari qonun hujjalari bilan mustahkamlab qo’yilgan va himoya qilinmoqda. BMT ning “Nogironlar huquqlari to’g’risida”gi Konvensiyaning xalqaro standartlari, shuningdek, “nogiron” so’zi o’rniga “nogironligi bo’lgan shaxs” atamasidan foydalanishni nazarda tutuvchi “Nogironligi bo’lgan shaxslar huquqlari to’g’risida”gi Qonun yurtimizda yuqoridagi toifaga mansub shaxslarning huquq va manfaatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Joriy yilda «Zamin» fondi «Eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun ta’limni rivojlantirish» dasturi doirasida Muhammad al-

Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan AKT-maktabida «Zamin Education» loyihasiga start berilib, loyihaning asosiy maqsadi eshitish qobiliyati zaif bolalarning kasb mahoratini rivojlantirish va ijtimoiylashuvda qo’llab-quvvatlash, ularni oliy o’quv yurtlariga o’qishga kirishga tayyorlash, shuningdek, axborot texnologiyalari sohasida ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o’qituvchilarining malakasini oshirish va yangi metodologiyani ishlab chiqishdan iborat. Ushbu loyiha birinchi «Zamin Education» o’quv-resurs markazi ochilgan Muhammad alXorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan AKT-maktabi bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Loyihaga mo’ljallangan sinfda ma’lumotlarni qabul qilish sifatini oshirishga qaratilgan yordamchi uskuna — FM-tizimi o’rnatilgan. Shuningdek, har bir o’quvchiga individual eshitish vositalari taqdim etilgan. «Zamin» fondi vasiylik kengashi raisi Ziroat Mirziyoyeva o’quv jarayoni bilan tanishish uchun ushbu sinfga tashrif buyurib, 102 va 106-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning yuqori sinf o’quvchilari bilan suhbatlashib, bolalar o’z taassurotlari bilan o’rtoqlashdi va o’rganilayotgan mavzular haqida so’zlab berdi. Birinchi o’quvresurs markazining muvaffaqiyatli

natijalaridan so'ng mamlakatning barcha hududlarida «Zamin Education» sinflarini tashkil etish rejalashtirilgan.

Bolalar o'qiyotgan, eshitayotgan va ko'rayotgan narsalarni to'la tushunib yetmasligi ularning so'zlashuv nutqida bir qator xatolarga olib keladi. Imkoniyati cheklangan bolalar nutqidagi barcha nuqsonlar, ularni o'qitish jarayonida qiyinchilik tug'diradi, hamma vaqt ham o'qituvchining tushuntirishlarini o'zlashtira olmaydi, o'qituvchining tushuntirishlarini to'g'ri tushunib yetmaydi. Lekin ilg'or o'qituvchidefektologlarning tajribalari shuni ko'rsatdiki, ta'limning maxsus tashkil etilgan jarayoni yordamida aqli zaif o'quvchilarning nutq faoliyatini tuzatish, ya'ni korreksiya qilish, umumiy shaxs rivojlanishida rolini oshirish mumkin. O'quv yilining dastlabki 2 haftasi o'qishga yangi kelgan o'quvchilar nutqini aniqlashga, tekshirishga qaratiladi. Bunda logoped o'quvchining og'zaki va yozma nutqi 2 bosqichda tekshiradi:. 1-bosqichda sinfdagi o'quvchilar nutqi yalpi holatda tekshiriladi hamda o'quvchilar orasidan nutq nuqsonli bolalar aniqlanadi; 2bosqichda ro'yhatga olingan nutq nuqsonli o'quvchi logopedik yordam xonasi sharoitida yakka tartibda chuqurroq aniqlanadi va tashxis qo'yiladi. Yakka mashg'ulotlar rejasi asosan logopetning nutq kartasida aks ettiriladi. Nutq jarayonini logopedik tekshirishni tashkil etish 1-sinf imkoniyati cheklangan o'quvchilarining nutqini tekshirish dars jarayonida o'quvchilami o'rghanishdan boshlanadi. Bunday frontal (yalpi) tekshirish logoped uchun vaqt tejashgina bo'lib qolmasdan, u o'quvchilar nutq faoliyatining tabiiy holatini kuzatish imkonini beradi, o'quvchilar javobi, ulaming og'zaki nutq holatini yaqqol ifodalab beradi. Shu bilan bir qatorda logoped bu davrda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari: ish qobiliyatları, diqqat, xotira, aqliy darajalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Frontal tekshirish har xil shaklda, shuningdek, integratsiya tarzida ham o'tkazilishi mumkin. Bunda logoped o'qituvchining ish jarayonida o'quvchilar javobini kuzatadi, so'ng o'z navbatida logoped o'zi tavsiya etgan mazmunli rasm asosida savol javob o'tkazadi, hikoya tuzib gapirishni so'raydi. Yana shuni hisobga olish lozimki, nutq tekshirish jarayoni ta'limiy xususiyatga ega bo'lishi lozim. Rasm asosida so'zlab berish jarayonida so'zlarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashga bolalar diqqati qaratiladi. O'quvchilarni so'zlatish davomida o'quvchi nutqining lug'at boyligi, so'zlarni ma'nosini tushuna bilib umumlashtiruvchi so'zlardan foydalana olishi, grammatik tomondan to'g'ri shakllanganligi va hokazo tomonlari har tomonlama o'rjaniladi. O'quvchining talaffuz holatini tekshirish jarayonida, har bir sahifasiga ma'lum tovush turli o'rnlarda (boshida, o'rtasida, oxirida) kelgan rasmlar joylashtirilgan tovushlar talaffuzini aniqlash albomidan foydalaniladi. Tovushni analiz qilish malakasini tekshirishda o'quvchilar unli, undosh tovushlarni yakka holda, bo'g'in, so'z, gaplarda farqlay olishlari, so'zda tovushlar soni, ketma-ketligini bilish jarayoni aniqlanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi har bir bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirilishi zarur bo‘lib, ayniqsa, imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’limning ahamiyati juda katta. Inklyuziv ta’lim nafaqat bolalarning bilim olish huquqini ta’minlaydi, balki ularning mustaqil hayotga tayyorgarligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ushbu jarayonda samaradorlikni baholash uchun bir qator mezonlar mavjud.

Birinchidan, imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Agar bola maktab jamoasida erkin muloqot qila olsa, do‘stlari bilan samarali hamkorlik qila olsa, bu inklyuziv ta’limning ijobiy natijalaridan dalolat beradi. Shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish ularning jamiyatga integratsiyalashuvini osonlashtiradi.

Ikkinchidan, ta’lim jarayonida bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Mustaqillikka erishish uchun bolaning o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay olishi, muammolarni mustaqil hal qilishga harakat qilishi va tashabbuskor bo‘lishi talab etiladi. Bu jarayonda pedagoglar va psixologlarning yordami katta ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, maxsus moslashtirilgan o‘quv dasturlarining samaradorligi ham inklyuziv ta’lim mezonlaridan biridir. Agar o‘quv dasturlari imkoniyati cheklangan bolalarning qobiliyatları va ehtiyojlariga mos ravishda tuzilsa, ularning ta’lim olish jarayoni samarali bo‘ladi. Shu bilan birga, dars uslublarining moslashuvchan bo‘lishi ham muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, oilaviy qo‘llab-quvvatlash ham muhim omil hisoblanadi. Inklyuziv ta’lim samaradorligini oshirish uchun ota-onalar va pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim. Oila a’zolari bolaning rivojlanishiga faol ishtirok etsa, uning mustaqillikka intilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Imkoniyati cheklangan bolalarni mustaqillikka o‘rgatishda inklyuziv ta’limning samaradorligini baholash uchun ijtimoiy moslashuv, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, moslashtirilgan o‘quv dasturlari va oilaviy qo‘llabquvvatlash kabi mezonlarga e’tibor qaratish lozim. Ushbu omillarni inobatga olgan holda ta’lim jarayonini takomillashtirish bolalarning jamiyatda to‘laqonli a’zo bo‘lishlariga yordam beradi.

Inson uchun mustaqillik bu o‘zligini anglash va o‘zining har tomonlama namoyon qilishi deb e’tirof etish mumkin. “Inson” deb atalmish tushuncha zamirida bola shaxsini ko‘radigan bo‘lsak, unda bolaning mustaqilligiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish zarur. Yosh bolaning mustaqilligini shakllantirish va rivojlantirishning asosi insonparvarlashtirilgan ta’limdir. Bu esa bola tarbiyasida muhim tamoyillardan biridir. Ta’lim va tarbiya jarayonining markazida bola shaxsi turar ekan, kutilayotgan natija ham bolaning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasi bilan tavsiflanadi. Insonparvarlashtirilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayon boladagi turfa imkoniyatlar, cheksiz qiziqishlarning namoyon bo‘lishining zaruriy shartlaridandir.

Insonparvarlik inson erkinligi, uning qadriyatlarini, tarbiyasiga bog‘liqdir. Sharq Uyg‘onish davrida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ta’limotlarida bu g‘oyalar o‘z aksini topgan. Abu Nasr Forobiy insonparvarlikni, aniq maqsad sari intilish baxt-saodat eltuvchisi ekanligini ta’kidlaydi: “Inson baxtsaodat nimadaligini tushungan bo‘lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olsa, g‘oya va xohishiga aylantira olsa, unga nisbatan o‘ziga bo‘lmasa-da, shavq-shavq sezmasa, istak va mulohazasiz, kuch va quvvatini boshqa narsalar sarflasa, bu qilmishlar yomon va norealidir...” Mustaqillikning ildizi insonparvarlik, erkinlik va faoliyatdir. Demak, bolalarda mustaqillik u yoki bu (masalan, aqliy, axloqiy va boshqa) yo‘nalishdagi ta’lim-tarbiya asosida shakllantiriladi, rivojlantiriladi degan yondashuv bir tomonlama hisoblanadi. Ya’ni mustaqillik bolaning borliq, makondagi mavjudligidir. Zamonning har soniyasida ishtirok etgan, bevosita va bilvosita guvohi bo‘lgan mazmunining ta’sirida paydo bo‘ladi. Bu fikr bolani shaxsida mustaqillik sifatini shakllantirish va rivojlantirishga asos bo‘ladi. Bu pedagogika va psixologiyaning nazariy asosidir. Ta’lim-tarbiya jarayoni yo‘nalishlarining barchasida mustaqillik tushunchasi bilan bog‘liq masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi namunalardan foydalanib bolani mustaqillikka undash mumkin: o‘rgangan har bir bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyotda sinab ko‘rish. O‘zi uchun qiziq bo‘lgan narsa, jarayon yoki hodisani izlanish orqali taxlil qilish (savollar berish, harakat orqali tajriba o‘tkazish, chizish, kuzatish va h.k.). Tashqi ta’sir yoki da’vat, chaqiriq va buyruqlarsiz o‘z harakatlarini amalga oshirish. Kutilmagan vaziyatlarda, favqulodda hodisalarda mustaqil ishtirok etish. Demak, mustaqillik fikrlash va o‘z asosida faoliyat yuritish jarayonida shakllanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni ayta olamanki, imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta’lim – bu har bir bolaning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan, teng imkoniyatlar asosida ta’lim olish huquqini ta’minlaydigan yondashuvdir. Inklyuziv ta’lim tamoyillari bolaning jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishini, ijtimoiy moslashuvini va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu tamoyillar orasida insonparvarlik, tenglik, diskriminatsiyaga qarshi kurashish, moslashuvchan o‘quv muhitini yaratish va hamkorlikda ishlash muhim o‘rin egallaydi. Inklyuziv yondashuv orqali barcha bolalar o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkoniga ega bo‘ladi. Shu tariqa, inklyuziv ta’lim nafaqat imkoniyati cheklangan bolalar, balki jamiyatning har bir a’zosi uchun foydali bo‘lib, barqaror va adolatli kelajak sari muhim qadamlardan biridir.

### **Tafsiyalar:**

#### **1. Mustaqillikka o‘rgatishning ahamiyati**

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun mustaqillikni rivojlantirish – ularning jamiyatda faol, o‘ziga ishonchli va mustaqil shaxslar bo‘lib o’sishini ta’minlaydi. Mustaqillik, nafaqat o‘qish yoki o‘quv jarayonlarida, balki kundalik hayotda ham ularga yordam beradi.

O'z-o'zini boshqarish, qarorlar qabul qilish, o'z ehtiyojlarini aniq ifodalash, va o'z harakatlarini rejalashtirish kabi ko'nikmalarni rivojlantirish kerak.

## **2. Inklyuziv ta'larning maqsadi**

Inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan bolalar uchun muvozanatli, adolatli va bir xil imkoniyatlar yaratish maqsadida tashkil etiladi. Bu ta'lim tizimi, har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olishga intiladi.

Mustaqillikka o'rgatish jarayonida, bolalar o'z imkoniyatlariga qarab, ular uchun eng qulay va samarali o'quv metodlarini tanlash zarur.

## **3. Inklyuziv ta'linda mustaqillikka o'rgatish mezonlari.**

Shaxsiylashtirilgan yondashuv: Har bir bola o'zining individual xususiyatlari, ehtiyojlar va qobiliyatlar bo'yicha o'qitilishi kerak. Bu yondashuv bolaga o'z mustaqilligini rivojlantirishda yordam beradi.

Ta'limni moslashtirish: O'qish va o'rgatish jarayonlari bolaning imkoniyatlariga moslashtirilishi kerak. Agar bola qiyinchiliklarga duch kelsa, qo'shimcha yordamlar, vositalar va o'qitish metodlarini ishlatish lozim.

Jarayonni qo'llab-quvvatlash: O'qituvchilar va ota-onalar o'rtaсидаги hamkorlik mustaqillikni rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi. Ota-onalar uyda ham bolaga qo'llab-quvvatlashni davom ettirishi lozim.

## **4. Mustaqillikka o'rgatish uchun asosiy tamoillar**

Qo'llab-quvvatlash va motivatsiya: Bolaga o'z kuchiga ishonishini o'rgatish va har bir kichik yutuqni qadrlash, ularni yanada rivojlantirishga undaydi.

O'z-o'zini baholash: Mustaqil o'quv jarayonida bola o'z ishini baholay olish va o'z xatolaridan o'rganish ko'nikmasini rivojlantirishi kerak. Bu ularga o'z xatolarini to'g'irlash va rivojlanish uchun yangi yo'llar izlashga yordam beradi.

Muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish: Imkoniyati cheklangan bolalar uchun muammolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish zarur. Ular muammolarni aniqlash, variantlar yaratish va eng yaxshi qarorni qabul qilishni o'rganishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Ta'lim to'g'risidagi "Qonun , "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"
2. O'zbekiston Respublikasining "ta'lim to'g'risida" Qonuni
3. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni
5. M. Yu Ayupova. Logopediya "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati"
6. F.Qodirova va boshqalar. "Maxsus pedagogika asoslari " O'quv qollanma - Chirchiq „Nazokatxon ziyo print”
7. R. M. Muradov „Pedagogik yondashuvlar va maktab faoliyati”
8. F.U.Qodirova, X.Sh.Yunusova. Inklyuziv va maxsus ta'limning filologik asoslari. Chirchiq, 2022